TIJORAT BANKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH VA HISOB YURITISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI (“IPOTEKA-BANK” ATB MISOLIDA)

“IPOTEKA-BANK” ATB
Kichik biznes bo‘limi, 1-toifali mutaxassis
Suvonqulov Jaxongir Usmonovich

Annotatsiya: Mazkur maqolada tijorat banklarida buxgalteriya hisobining mohiyati, asosiy vazifalari va uni samarali tashkil etishning ahamiyati yoritib beriladi. Bank buxgalteriya hisobi bu barcha moliyaviy operatsiyalarni aniqlik bilan hujjatlashtirish, nazorat qilish va tahlil qilishga xizmat qiladigan axborot tizimidir. Uning asosiy vazifasi mijozlar bilan hisob-kitoblar, aktivlar va majburiyatlarning holati, daromad va xarajatlar harakatini to‘g‘ri aks ettirishdir. Maqolada buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish, ichki nazoratni kuchaytirish, va xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiqlikning ahamiyati ham tahlil etilgan.

Kalit so’zlar: bank buxgalteriyasi, moliyaviy operatsiyalar, aktivlar va majburiyatlar, daromad va xarajatlar, ichki nazorat, avtomatlashtirish, xalqaro standartlar.

Abstract: This article discusses the essence of accounting in commercial banks, its main functions, and the importance of its effective organization. Bank accounting is an information system that ensures accurate documentation, control, and analysis of all financial transactions. Its primary task is to correctly reflect settlements with clients, the state of assets and liabilities, and the movement of income and expenses. The article also highlights the significance of automation, strengthening internal controls, and compliance with international financial reporting standards.

Keywords: bank accounting, financial transactions, assets and liabilities, income and expenses, internal control, automation, international standards.

Kirish

Hozirgi kunda banklarda buxgalteriya hisobining yuritilishi, buxgalteriya ishining to‘g'ri tashkil etilishi va nazoratning aniq olib borilishi bankning o'z vazifalarini to‘g'ri bajarishinidan dalolatdir. Har bir korxona va tashkilot kabi banklarda ham buxgalteriya hisobi olib boriladi.Banklarni buxgalteriya hisobisiz tassavur qilib bo’lmaydi. Banklarda buxgalteriya hisobining o’rni beqiyos. Buxgalteriya hisobi orqali bank har birta bo’limni nazorat va taftish qilib hisobot tuzadi. Buxgalteriya hisobi keng tarmoqli sohalardan hisoblanadi. Banklarda buxgalteriya hisobina faqat provodkalar berish, kunlik hujjat aylanishidan boshlab to hisobotgacha o’z ichiga oladi.

Banklar tizimida buxgalteriya hisobi yuritish ishini to’g’ri tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Chunki buxgalteriya hisobi va nazoratning puxta yo’lga qo’yilishi bankning o’z vazifalarini to’g’ri bajarishini ta’minlaydi. Buning uchun buxgalterlardan muayyan bilimlar, buxgalteriya hisobi va hisobotining asosiy tamoyillari hamda uslublarini tushunish talab qilinadi. Buxgalteriya hisobining yuritilishi, buxgalteriya ishining to’g’ri tashkil etilishi va nazoratning aniq olib borilishi bankning o’z vazifalarini to’g’ri bajarishini, mavjud va bo’lg’usi investorlar, kreditorlar, hukumat muassasalari, vazirliklar, idoralar, jamoatchilik va boshqa manfaatdor foydalanuvchilar, shuningdek, bank rahbariyati va xodimlari uchun bank faoliyatiga haqqoniy baho berish imkonini yaratadigan aniq va foydali axborot olishni ta’minlaydi.

Mavzuning dolzarbligi

Banklarda buxgalteriya hisobi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridagi buxgalteriya hisobi bilan chambarchas bog'liq. Bu bog'liqlik banklarning kassa, hisob-kitob, kredit va boshqa bank operatsiyalari bo'yicha davlat, korxona, tashkilot, muassasa, jismoniy shaxslarga xizmat ko‘rsatishda namoyon bo’ ladi. Ushbu dissertatsiya doirasida amalga oshirilgan ilmiy tahlillar, amaliy kuzatishlar va taklif etilgan yondashuvlar orqali mazkur sohada bir qator nazariy va amaliy jihatlar yangicha asosda ko‘rib chiqilgan.

Bugungi kunimizda buxgalteriya hisobining ahamiyati juda katta bo‘lib, uni quyidagichatushunishimiz mumkin bo‘ladi. Buxgalteriya hisobi bank faoliyatining asosiy qismidir. U bankning moliyaviy holatini, daromad va xarajatlarini, shuningdek, mijozlar bilan hisob-kitoblarni to‘g‘ri aks ettirishga yordam beradi. Buxgalteriya hisobi orqali banklaro‘zfaoliyatini samarali boshqarish, risklarni baholash va strategik qarorlar qabul qilishimkoniyatiga ega bo‘ladilar. Mamlakatimizdagi banklarda amalga oshiriladigan xo‘jalik operatsiyalari quyidagilarga bo‘linadi:

- Moliya operatsiyalari: depozitlar, kreditlar, investitsiyalar.
- Hisob-kitob operatsiyalari: mijozlar bilan hisob-kitoblar, to‘lovlar.
- Xarajat operatsiyalari: ish haqi, xizmatlar, boshqa xarajatlar.
- Har bir operatsiya turining o‘ziga xos buxgalteriya hisobini yuritish talab etiladi.

Banklarda buxgalteriya hisobining yuritilishi, buxgalteriya ishining to‘g‘ri tashkil etilishi va nazoratning aniq olib borilishi bankning o‘z vazifalarini to‘g‘ri bajarishini, mavjud va bo‘lg‘usi investorlar, kreditorlar, hukumat muassasalari, vazirliklar, idoralar, jamoatchilik va boshqa manfaatdor foydalanuvchilar, shuningdek, bank rahbariyati va xodimlari uchun bank faoliyatiga haqqoniy baho berish imkonini yaratadigan aniq va foydali axborot olishni ta’minlaydi. Buning uchun buxgalterlardan muayyan bilimlar, buxgalteriya hisobi va hisobotining asosiy tamoyillari hamda uslublarini tushunish talab qilinadi. Buxgalteriya hisobining

yuritilishi, buxgalteriya ishining to‘g ’ri tashkil etilishi va nazoratning aniq olib borilishi bankning o‘z vazifalarini to‘g‘ri bajarishini, mavjud va bo‘lg‘usi investorlar, kreditorlar, hukumat muassasalari, vazirliklar, idoralar, jamoatchilik va boshqa manfaatdor foydalanuvchilar, shuningdek, bank rahbariyati va xodimlari uchun bank faoliyatiga haqqoniy baho berish imkonini yaratadigan aniq va foydali axborot olishni ta’minlaydi.

Banklarda buxgalteriya hisobi oldiga bir qator vazifalar qo‘yilgan bo‘lib, ularni quyida sanab chiqamiz. Bank buxgalteriya hisobining vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- hisob-kitoblardagi mablag‘lar aylanishini tezlashtirish, mijozlarga tez va puxta xizmat ko‘rsatish;

- hisob-kitob, kassa, valuta, kredit hamda boshqa bank operatsiyalarini to‘g‘ri bajarish;

- bajarilgan operatsiyalar buxgalteriya hisobi va hisobotida o‘z vaqtida hamda aniq aks ettirilishini ta’minlash;

- bankdan chiqadigan hujjatlarni tegishlicha rasmiylashtirish va buning natijasida bu hujjat borgan joyda ulardan foydalanishni yengillashtirish, shuningdek, boshqa banklarda ana shu hujjatlar bilan operatsiyalar bajarilayotganda hamda ular tomonidan xizmat ko‘rsatilayotgan mijozlar hisobvaraqlarining hisobi yuritilayotganda yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan xatolarning, g‘ayriqonuniy xatti-harakatlarning oldini olish;

- bankda turgan pul mablag‘lari, moddiy boyliklar, shuningdek, qat’iy hisobi yuritiladigan blankalar kam chiqish yoki ortiqcha sarflab yuborilishining oldini olish;

Banklarda buxgalteriya hisobini tashkil etishda hisob ishlari hajmini aniqlab olish, buxgalteriya xodimlari sonini, ular o‘rtasida hisob ishlari taqsimotini, qo‘llaniladigan hisob shaklini, hisob ishlarida hisoblash texnikalaridan foydalanishini belgilab olish kerak bo‘ladi. Shu bilan birga, bank faoliyatiga taalluqli qarorlarni to‘g‘ri qabul qilinishi buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisob ma’lumotlarini o‘z vaqtida va to‘g‘ri tuzilganligiga bog‘liq bo‘ladi. O‘z vaqtida olinmagan yoki noto‘g‘ri yuritilgan buxgalteriya hisob ma’lumotlari noto‘g‘ri qarorlar qabul qilinishiga, natijada banklarning zarar ko‘rishiga, ba’zi hollarda esa bankrotlik holatiga kelishga ham sabab bo‘lishi mumkin.

METODOLOGIYA

Ilmiy tadqiqot jarayonida adabiyotlar sharhi, normativ tahlil, milliy buxgalteriya standartlari, markaziy bank me’yorlari va xalqaro standartlarning qiyosiy tahlili, benchmarking: mintaqaviy (CE/EEU) va rivojlangan bozorlarda bank hisobotini raqamlashtirish amaliyotlari, dizayn-ilmiy usul: bank ichki jarayonlari uchun ma’lumot boshqaruvi, nazorat nuqtalari va texnologik arxitektura bo‘yicha prototip yechimlar va KPIlar kabi usullardan foydalanildi.

ADABIYOTLAR SHARHI.

So‘nggi tadqiqotlar IFRS qo‘llanishi banklarning xalqaro integratsiyasi va chet el investitsiyalari oqimini yengillashtirishini, ma’lumot sifati va taqqoslanuvchanligini oshirishini ko‘rsatadi. Ayniqsa IFRS 9 joriy etilgach, kredit riskini erta tan olish va zaxiralarni davriy yangilab borish hisobotlarning ishonchliligini oshirgani ilmiy ishlarda empirik asoslanadi. Basel Qo‘mitasining ECL bo‘yicha ko‘rsatmalari hisobot va prudensial nazorat o‘rtasidagi izchillikni ta’minlash, modellarning konservativligi, ma’lumotlar sifati va boshqaruv javobgarligini kuchaytirish

Buning uchun hisobchilar xalqaro buxgalteriya hisobi, xalqaro moliyaviy hisobning asosiy tamoyillari va uslubiy asoslari haqida keraklicha tushuncha va ko’nikmaga ega bo‘lishi kerak. Xalqaro buxgalteriya hisobi va xalqaro moliyaviy hisob aktsiyadorlik jamiyatlari mablag'larining harakati va ularning shakllanish manbalarini ko'rsatadi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

“IPOTEKA-BANK” ATB O‘zbekiston bank tizimining barqaror ishtirokchilaridan biri bo‘lib, uning faoliyati so‘nggi yillarda sezilarli darajada rivojlandi. Bankning yillik moliyaviy hisobotlarini tahlil qilish natijasida bank aktivlarining umumiy hajmi ortganligi va kredit portfeli sifatining yaxshilanganligi ko‘rindi. Biroq, ayrim ko‘rsatkichlarda pasayishlar va risklarning ortishi ham qayd etildi, bu esa bankning aktivlar samaradorligini yanada oshirish zaruratini ko‘rsatadi.

“IPOTEKA-BANK” ATB aktivlar tarkibi tahlili (mlrd so‘mda) 1-jadval

Yil	Jami aktivlar	Kredit va lizing	Boshqa banklarda mablag‘lar	Qimmatli qog‘ozlar va investitsiyalar	Asosiy vositalar	Boshqa aktivlar
2021	46 801	29 018	2 800	1 450	2 550	3 201
2022	49 377	31 509	3 179	1 521	2 744	3 242
2023	52 145 .	40 074	3 494	1 373	4 146	2 731
2024	58 093	38 113	6 763	2 279	2 748	1 374
2025 (mart)	59 480 .	38 904	5 117	3 057	2 756	1 392

Aktivlar

- 2021 yilda jami aktivlar 46,8 trln so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2025 yil martiga kelib ular 59,5 trln so‘m ga yetdi.
- 4 yil ichida aktivlar hajmi qariyb 27% ga o‘sdi.
- Eng katta o‘sish 2023–2024 yillarda kuzatildi (52,1 trln dan 58,1 trln so‘mga).

Kredit va lizing portfeli

• 2021 yilda 29,0 trln so‘m, 2025 yil martida 38,9 trln so‘m ga yetdi.

• 2023 yilda portfel keskin ko‘payib, 40,1 trln so‘m ga chiqdi, biroq 2024 yilda biroz qisqardi.

Depozitlar

• Depozitlar hajmi 2021 yildagi 25,2 trln so‘m dan 2025 yil martida 33,4 trln so‘m ga oshgan.

• Yiliga o‘rtacha 6–8% o‘sish kuzatilmoqda, bu barqaror mijoz bazasini ko‘rsatadi.

“IPOTEKA-BANK” ATB bankda passiv tarkibining ulushlari **(%)**

Yil	Depozitlar	Boshqa bank mablag‘lari	Qimmatli qog‘ozlar	Kapital
2021	54%	26%	<1%	13%
2022	56%	25%	<1%	12%
2023	56%	26%	<1%	13%
2024	55%	30%	<1%	11%
2025 (mart)	56%	26%	<1%	10%

Manba: muallif ishlanmasi

2-jadval *“IPOTEKA-BANK” ATB* bankda passiv tarkibining ulushlari jadvalidan xulosa qilib mumkinki depozitlar 2021 yilda 54 foiz bo’lsa, 2022yilda 56foizni tashkil qilgan. Bank passivlarining asosiy manbai bo‘lib qolmoqda – 54–56% ulush.2021 yildagi 25,2 trln so‘mdan 2025 yilda 33,4 trln so‘mga oshgan.

Boshqa bank mablag‘lari 2021 yilda 26%, 2024 yilda 30% gacha o‘sib, muhim manba sifatida ko‘rinmoqda.Bu bankning xalqaro va mahalliy moliya institutlari bilan hamkorligi kengayganidan dalolat beradi.

Qimmatli qog‘ozlar chiqarilgan obligatsiyalar va sertifikatlar hajmi kichik bo‘lib, umumiy passivlarning <1% ini tashkil qiladi.Bank kapital bozoridan yetarlicha foydalanmayotgani ko‘rinadi.

Xulosa va takliflar.

Tijorat banklarida hisob siyosatini takomillashtirish moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirish, risklarni minimallashtirish va raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun muhim jarayon hisoblanadi. Hisob siyosati — bu bank faoliyati davomida moliyaviy hisobotlarni shakllantirishva tartibga solish uchun qo'llaniladigan tamoyillar, qoidalar va usullar to‘plami. Ushbu siyosatni takomillashtirish bankning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va ishonchni oshirishda kata ahamiyatga ega. Banklarning hisob siyosatini takomillashtirishda asosiy e'tibor quyidagi jihatlarga qaratiladi: avvalo, hisobning aniqligi va shaffofligini ta'minlash lozim. Bu moliyaviy ma'lumotlarning to‘g‘ri aks ettirilishiga va bank faoliyati to‘g‘risida to‘liq tasavvurga ega bo‘lish imkonini beradi. Hisob siyosati aniq belgilangan standartlar asosida yuritilishi kerak, chunki bubank audit jarayonlarini

soddalashtiradi va moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga mos kelishini ta’minlaydi.

Bankning hisob siyosati mijozlar uchun ham tushunarli bo‘lishi kerak. Hisob siyosati orqali bank xizmatlari to‘g‘risidagi ma'lumotlar aniq va oshkora taqdimetilishi, mijozlarga bankning ishonchliligi haqida aniq tasavvur berishi zarur. Yana bir muhimjihat – hisob siyosati doimiy ravishda bankning strategik maqsadlari va o‘zgaruvchan qonunchilik talablariga moslashtirib borilishi kerak. Moliyaviy bozorlar sharoiti o‘zgarishi, yangi mahsulotlar vaxizmatlar paydo bo‘lishi bilan hisob siyosatini qayta ko‘rib chiqish zarur bo‘ladi. Tijorat banklarida hisob siyosatini takomillashtirish keng qamrovli va doimiy jarayon bo‘lib, bankning moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirish, ishonchliligini ta'minlash va raqobat bardoshligini kuchaytirish maqsadini ko‘zlaydi.

Bank buxgalteriya hisobini takomillashtirish bo‘yicha takliflar

1. Bank buxgalteriya hisobini raqamlashtirish va avtomatlashtirish

O‘zbekiston tijorat banklarida buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish jarayonlari hali to‘liq amalga oshirilmagan bo‘lib, ko‘pchilik banklarda qisman qo‘lda hisob-kitob yuritiladi. Bu esa inson omilining xatoliklari ehtimolini oshirib, vaqt sarfini ko‘paytiradi. Shu sababli, barcha tijorat banklarida majburiyatlarni hisobga olish va monitoring qilish uchun yagona raqamli platformalarni joriy qilish lozim. Buning uchun Markaziy bank tomonidan tijorat banklari uchun standartlashtirilgan avtomatlashtirilgan dasturlar tavsiya qilinishi kerak.

Xususan, ERP (Enterprise Resource Planning) tizimlarini qo‘llash orqali bank majburiyatlarini real vaqt rejimida nazorat qilish va ularning hisobotini shakllantirish jarayonlarini avtomatlashtirish mumkin. Bu esa banklarning moliyaviy holatini muntazam ravishda nazorat qilish imkonini beradi.

2. Buxgalteriya hisobini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish

O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini xalqaro moliyaviy institutlar bilan integratsiyalashuvini kuchaytirish uchun Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) talablarini majburiyatlar hisobi sohasida ham to‘liq joriy etish zarur. Jumladan, IFRS 9 (“Moliyaviy instrumentlar”), IAS 37 (“Majburiyatlar va shartli majburiyatlar”) standartlari asosida majburiyatlarni hisoblash tizimini ishlab chiqish va qo‘llash zarur.

Xalqaro standartlarga o‘tish orqali banklarning moliyaviy ko‘rsatkichlari yanada shaffof bo‘ladi va xorijiy investorlar uchun moliyaviy hisobotlarga bo‘lgan ishonchni oshiradi.

3. Bank buxgalteriyasini baholashda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash

Majburiyatlarni baholashda sun’iy intellekt (AI) va katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash (Big Data) texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish lozim. Bunday zamonaviy texnologiyalar banklar faoliyatidagi majburiyatlar bilan

bog‘liq risklarni tezroq aniqlash va baholash imkonini beradi. Bu esa banklarning risk boshqaruvi va qaror qabul qilish jarayonlarini tezlashtiradi va optimallashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi “2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank soxasini isloh qilish strategiyasi to‘grisida”gi PF-5992 sonli Farmoni
2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2020-yil 30-iyundagi “Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi 3254-sonli Qarori
3. Buxgalteriya hisobi: Darslik / A.A. Karimov, J.E. Kurbanbayev, S.A. Jumanazarov; — T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. 624 b.
4. Karaliyev T.M., Qurbonov R.B., Rustamov M.S. Banklarda buxgalteriya hisobi (Matn|: o ‘quv qo‘llanma / T.M. Karaliyev, R.B. Qurbonov, M.S. Rustamov. - Toshkent: «ZEBO PRINT», 2021. - 344 b.
5. Z.A.Umarov. Banklarda buxgalteriya hisobi (darslik). -T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», nashriyoti 2021, 612 b.
6. Buxgalteriya hisobi: Darslik / A.A. Karimov, J.E. Kurbanbayev, S.A. Jumanazarov; - T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. 624 b.
7. Bakiyeva X., Rizayev N. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Masalalar to‘plami. - T.: TMI, 2007 y
8. Accounting. Carl S.Warren, James M.Reeve, Jonathan E.Duchac, 2014 4. Джамбакиева Г. Финансовый учет. Учебное пособие. -Т.: “Iqtisodmoliya”, 2012 г.
9. https://cbu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti